

**Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil III va IVchoraklarga (II yarim yillikka) mo'ljallangan
I Sh R E J A S I***

№	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash **
I. Ishlarni tashkillashtirish, boshqarma va uning tizimidagi bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida						
1.	Quyidagi adliya bo'limlari, yuridik xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlari markazlari hamda FHDY bo'limlari faoliyatini kompleks tekshirish : - G'uzor tumani ; - Yakkabog' tumani ; - Kitob tumani . Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	avgust, noyabr-dekabr	Boshliq buyrug'iga muvofiq	Adliya bo'limlari va uning tuzilmalari faoliyati boshqarma tomonidan so'nggi uch yil mobaynida kompleks tekshirilmagan.	Adliya bo'limlari va uning tuzilmalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilishi holatlarini bartaraf qilish.	3
II. Yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda intellektual mulk sohasida						
2.	Iste'mol tovarlari, dori vositalari, tibbiy buyum va tibbiy texnika hamda mualliflik huquqi (turdosh huquqlar) obyektlarini realizatsiya qilish jarayonida intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash bo'yicha nazorat xaridlarini o'tkazish.	iyul-dekabr	S.Raximov, I.Sharapov	Savdo ob'yektlarida kontrafakt mahsulotlarning realizatsiyasi bilan bog'liq holatlarning mavjudligi.	Intellektual mulk huquqlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini oldini olish.	2
3.	Qashqadaryo viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrizabz filiali faoliyatida yuridik xizmat sohasidagi ishlarni tashkil etishda qonun hujjatlariga rioya etilishini	avgust-sentabr	S.Raximov, S.Turapov	Mazkur sohada boshqarma tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.	Yuridik xizmat sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash.	3

	o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish.					
4.	Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) bo'yicha majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasida bajarilishi yuzasidan monitoring o'tkazish hamda tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish.	oktabr	S.Raximov, I.Sharapov	O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro shartnomaga 2019-yilda qo'shilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar majburiyatlar bajarilishi holati o'rganilmagan.	Xalqaro shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyatlar bajarilishini o'rganish hamda mualliflik huquqi obyektlarini internet axborot makonida himoyasini ta'minlash.	2
5.	Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugi hamda Toifalangan ob'ektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi 99150-harbiy qism faoliyatida yuridik xizmat sohasidagi ishlarni tashkil etishda qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish	oktabr- noyabr	S.Raximov, S.Turapov	Mazkur sohada boshqarma tomonidan oxirgi uch yillikda o'rganish va monitoring o'tkazilmagan.	Yuridik xizmat sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash.	3
III. Huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, inson huquqlarini himoya qilish, Prezident hujjatlari ijrosini nazorat qilish huquqiy hamda targ'ibot sohasida						
6.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "huquqiy ko'mak" aksiyasini o'tkazish. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	avgust	S.Raximov, E.Ismoilov, R.Raxmonov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo'llanmaslik holatlari bo'yicha tegishli murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida "huquqiy ko'mak" aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi kuchaytiriladi.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo'nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti o'rganiladi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko'mak ko'rsatiladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	4
7.	O'rmon xo'jaligi agentligi Qashqadaryo viloyatdagi hududiy va tarkibiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish	avgust- sentabr	S.Raximov, A.Bekmamatov, F.Qurbonov,	Bugungi kunda o'rmonlarning kamayib borishi va tabiiy tiklanish sur'atining pastligi, davlat o'rmon	O'rmon xo'jaligi agentligi faoliyatini o'rganish natijasida agentlik	3

	o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.		E.Ismoilov, Sh.Bahronov, S.Turapov, I.Sharapov, R.Raxmonov, tegishli tuman (shahar) adliya bo'limlari	fondi yerlarida noqonuniy kesish, o'rmon xo'jaligi ko'chatzorlarining yetarli rivojlanmaslik holatlari mavjud. 2030-yilgacha 1,7 mln gektar yerda o'rmonzorlar tashkil etish bo'yicha Prezident qarori mavjud bo'lsa-da, ayrim hududlarda rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilmayapti.	faoliyatidagi mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni aniqlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish o'rmon xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorat mexanizmlarini kuchaytiriladi.	
8.	Eksportni rag'batlantirish agentligi Qashqadaryo viloyatdagi hududiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan	avgust-sentabr	S.Raximov, A.Bekmamatov, F.Qurbonov, E.Ismoilov, Sh.Bahronov, S.Turapov, I.Sharapov, R.Raxmonov	Hududiy tuzilmalar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	Hududiy tuzilmalar faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	3

	o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intelektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.					
9.	Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi Qashqadaryo viloyat hududiy va tarkibiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intelektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.	sentabr-oktabr	S.Raximov, A.Bekmamatov, F.Qurbonov, E.Ismoilov, Sh.Bahronov, S.Turapov, I.Sharapov, R.Raxmonov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan aholining sanitariya-gigiyena talablari, epidemiyaga qarshi choralar, oziq-ovqat xavfsizligi va infeksion kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan nazorat faoliyati huquqiy jihatdan yetarli darajada barqaror va samarali emasligi kuzatilmoqda. Profilaktika va gigiyenaga oid targ'ibot materiallari eskicha, yetarli interaktivlik yo'q, sanitariya holati, epidemiologik holat, infeksiya tarqalishi bo'yicha yagona va to'liq ma'lumot bazasi mavjud emas.	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy tuzilmalari faoliyatini o'rganish natijasida: sanitariya-gigiyena va jamoat salomatligi sohasida amaldagi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar bartaraf etiladi; huquqiy hujjatlardagi eskirgan yoki zamonaviy ehtiyojlarga javob bermaydigan normalarni qayta ko'rib chiqiladi; sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish hamda ma'sul organlar vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilash; jamiyat sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari bo'yicha idoralararo hamkorlikni rivojlantirish.	3
10.	Energetika vazirligi Qashqadaryo viloyat hududiy va tarkibiy tuzilmalari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil	oktabr	S.Raximov, A.Bekmamatov, F.Qurbonov,	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek	Boshqarma faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish,	3

	etish, bunda: huquqni qo'llash amaliyoti; davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari; ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati; tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati; yuridik xizmat faoliyatini; intellektual mulk sohasi; huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.		E.Ismoilov, Sh.Bahronov, S.Turapov, I.Sharapov, R.Raxmonov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda.	vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish.	
11.	Ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha hokimlarning qarorlarini o'rganish hamda qonunga zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralarini ko'rish.	noyabr	S.Raximov, A.Bekmamatov	Davlat Rahbari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sport maydonchalari va bolalar o'yingohlari, uylar orasidagi yashil hududlar qurilish uchun berib yuborilayotganidan odamlar noroziligi tandiq qilingan.	Hokimlar tomonidan ko'p qavatli uylarga tutash hududlarni boshqaruv kompaniyalariga berish bo'yicha qonunchilikka zid ravishda qabul qilingan qarorlarni bekor qilish.	3
12.	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va hal etish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida "Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish" huquqiy aksiyasini o'tkazish.	noyabr	S.Raximov, E.Ismoilov, R.Raxmonov, tuman (shahar) adliya bo'limlari	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi Ushbu "huquqiy ko'mak"	Yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va hal etish, jamiyatda yoshlar rolini oshirish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongida	4

	Aksiya natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga axborot berish.			aksiyasini tashkil etish orqali bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishi yanada kuchaytiriladi.	qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish va ularning milliy vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirish hisoblanadi.	
IV. Huquqiy xizmat ko'rsatishni tartibga solish, davlat xizmatlari ko'rsatilishi, FHDY hamda raqamlashtirish sohasida						
13.	Quyidagi FHDY bo'limlari faoliyatini o'rganish: - Qamashi tumani; - Koson va Qarshi tumanlari; - Ko'kdala va Nishon tumanlari. Natijasiga ko'ra, taklif kiritish.	iyul, avgust-sentabr, oktabr-noyabr	T.Imomberdiyev, Sh.Xalilov	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-son qarori.	FHDY bo'limlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilishi holatlarini bartaraf qilish.	3
14.	"FHDYning yagona axborot elektron arxivi" axborot tizimidagi "Raqamlashtirish moduli" orqali tug'ilish va o'lim dalolatnoma yozuvlariga JShShIR biriktirish choralari ko'rish.	iyul-noyabr	T.Imomberdiyev, Sh.Xalilov, tuman (shahar) FHDY bo'limlari	Adliya vazirligining 2025-yil 1-iyuldagi 24/10-9268/8-son ko'rsatma xati.	Barcha elektron tizimlarda fuqarolarning oila tarkibini to'liq va to'g'ri shakllantirilishiga erishiladi.	1
15.	Quyidagi advokatlik tuzilmalarida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya talablari va shartlariga hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish davomida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi holatini o'rganish: Qarshi shahridagi: - "Nasaf huquq maslahatchi" advokatlar hay'ati; - "Yusupov Himoyasi" advokatlik byurosi; - "Huquqiy protsess" advokatlik byurosi; - "Xodjaev Axtam himoyasi" advokatlik byurosi; Qarshi shahridagi:	avgust, sentabr,	T.Imomberdiyev, O.Bo'riyev	Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomning 10-bandida advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustav faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish belgilangan.	Advokatura sohasidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilishiga hamda kelgusida aniqlangan kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash.	3

	- “Advokat haqiqat tayanchi” advokatlik byurosi; - “Ishonchli himoya mezon” advokatlik byurosi; - “Nur himoyasida” advokatlik byurosi”; - “Jasur huquqiy himoyasi” advokatlik byurosi; Qarshi shahridagi: - “Otaxon qonun himoyachi” advokatlik firmasi; - “Feniks advokatlari” advokatlik firmasi; - “Adolat” advokatlik firmasi; - “Alyans” advokatlik firmasi; Qamashi tumanidagi: - “Ong adolat til haqiqat” advokatlik byurosi; - “Huquq samarasi” advokatlik byurosi; Yakkabog‘ tumanidagi: - “Advokat Behzod Saidov” advokatlik byurosi; - “Yakkabog‘ adolat himoyasi” advokatlik byurosi. Natijasiga ko‘ra, taklif kiritish.	oktabr, noyabr				
16.	Quyidagi xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyatini o‘rganish: - Shahrisabz shahridagi D.Xayrulloeva, Yakkabog‘ tumanidagi D.Turayeva va Koson tumanidagi M.Amanova; - Shahrisabz tumanidagi D.Jamolova, Qarshi shahridagi M.Allanova va M.Muxammadiyeva; - Yakkabog‘ tumanidagi Y.Turdiyeva,	avgust, sentabr, noyabr,	T.Imomberdiyev, O.Bo‘riyev	“Notariat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 22⁸-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 12-bandiga ko‘ra notarius ish faoliyati belgilangan muddatlarda tekshirib boriladi.	Notariuslar faoliyatida notariat sohasidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilinishi ta‘minlash.	3

	Muborak tumanidagi G.Oqmamatova va Chiroqchi tumanidagi M.Pattayeva; - Mirishkor tumanidagi F.Xamidov, Qarshi shahridagi I.Yakubov va U.Turdiyev. Natijasiga ko'ra, taklif kiritish.	dekabr				
17.	Viloyatning olis va chekka hududlarida yashovchi aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida onlayn davlat xizmatlaridan foydalanishlarini ta'minlash maqsadida, tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlari xodimlari tomonidan "MY.GOV.UZ BILAN YANADA OSON!!!" shiori ostida bepul aksiya o'tkazish.	avgust-sentabr	T.Imomberdiyev, Sh.Xalilov, tuman (shahar) DXMlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80 son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida"gi nizom.	Aholini, ayniqsa yoshlarni Mobil-ID tizimidan identifikatsiyadan o'tkazgan holda, ularni onlayn davlat xizmatlaridan foydalanishlariga erishish.	1
18.	Notariuslar tomonidan: 2024-yil hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan ko'chmas mulk va avtomototransport vositasi oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirishda mol-mulklarga nisbatan taqiq va xatlovlar mavjudligini tekshirish holatlarini; 2022-2024-yillar hamda 2025-yilning 1-yarim yilligi davomida notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini o'rganish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar qo'llab, tahliliy ma'lumotnomani Adliya vazirligiga kiritish.	avgust oktabr	T.Imomberdiyev, O.Bo'riyev	Notariuslar tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq notarial harakatlar rasmiylashtirilganda "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali mol-mulklarga taqiq va xatlovlar tekshirilishi lozim. Shuningdek, merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlari 2019-2021-yillarda tahlil qilingan bo'lib, so'nggi uch yil mobaynida notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish holatlarini o'rganish zarurati mavjud.	Notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiylikiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o'rganish.	1
19.	Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom asosida davlat	oktabr-noyabr	T.Imomberdiyev, Sh.Bahronov	Mazkur sohada boshqarma tomonidan oxirgi bir yillikda o'rganilmagan.	Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan Davlat uy-joy fondi obyektni xususiyalashtirish bo'yicha ariza yuborish davlat xizmatlari ko'rsatish	3

	xizmatlari ko'rsatilishida belgilangan muddatlarga hamda rad etish talablariga rioya etilganligi holatini tahlil qilish. Natijasi bo'yicha tegishli choralarni ko'rish.				sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijro qilinishi holati va amaliyoti tahlil qilinadi muammo va kamchiliklar bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.	
20.	Tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazi xodimlarining fuqarolarga rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish holatlarini o'rganish.	noyabr	T.Imomberdiyev, Sh.Xalilov	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-dekabrdagi 732-son qarori bilan tasdiqlangan "Rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamenti"	Davlat xizmatlari ko'rsatishdagi xatoliklarni bartaraf etish va yo'l qo'ymaslikka erishish.	1
21.	Boshqarma va uning tizimidagi tuzilmalarda kompyuter va tarmoq qurilmalarini inventarizatsiya (xatlov)dan o'tkazish	noyabr	A.Ergashev G'.Suyarov	ISO/IEC 27001:2022 xalqaro standarti talablariga muvofiq axborot va kiberxavfsizlik talablarini bajarish.	Boshqarma va uning tizimidagi tuzilmalarda kompyuter va tarmoq qurilmalarini inventarizatsiyadan o'tkazib, har qanday qurilmalarni tarmoqqa ishlashida administrator tomonidan ruxsat berish tizimini joriy etish.	1
V. Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash hamda huquqiy axborot sohasida						
22.	Aholi o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida "Men jinoyatchilikka qarshiman", "Korrupsiya-jamiyat kushandasi", "Huquqbuzarliklarga birgalikda kurashamiz" mavzularida davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish.	iyul-dekabr (reja-grafik asosida)	S.Raximov, R.Raxmonov, boshqarma va uning tizimidagi bo'limlari	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori ijrosini ta'minlash.	Mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish.	4
23.	Ommaviy huquqiy bloglar va podkastlar" tashkil etish.	iyul-dekabr (reja-grafik	S.Raximov, R.Raxmonov, boshqarma	Huquqiy mavzularda mutaxassislar bilan suhbatlar, intervyular va savol-javoblar	Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida huquqiy	4

		asosida)	tarkibiy bo'linmalari	tashkil qilish hamda video/audio podkastlar, YouTube va Instagram sahifalari orqali yoritib borish.	savodxonlikni oshirish, ularni huquqbuzarliklardan ogoh etish va jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishini kuchaytirish.	
24.	“Men Vatanimning yuziman” nomli targ'ibot kampaniyasini tashkil etish.	iyul-noyabr	S.Raximov, R.Raxmonov, boshqarma va uning tizimidagi bo'limlari	So'nggi davrda chet elda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ko'plab turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan omillar sifatida xorijiy mamlakatlarning qonunlari va madaniy qoidalarini yetarlicha bilmasligi, iqtisodiy omillar, oilaviy nazoratning zaifligi, radikallashuv va siyosiy omillarni ko'rsatishimiz mumkin.	Axloqiy, madaniy va huquqiy bilimlarni oshirish orqali xorijdagi salbiy hodisalarni kamaytirish. Turizm va mehnat migratsiyasi sohalarida milliy brendingni mustahkamlash.	4
25.	Quyidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faolyatida o'rganish o'tkazish: - Qashqadaryo viloyat kurash federatsiyasi; - O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining qo'l jangi federatsiyasi Qashqadaryo viloyat bo'limi. Natijasi yuzasidan tegishli choralar ko'rish.	avgust, sentabr	T.Imomberdiyev, N.Sattarova	Mazkur tashkilotlar faoliyatida oxirgi 3 yillikda o'rganish o'tkazilmagan.	Tashkilotlar tomonidan qonun va ustav talablariga amal qilishiga olib keladi.	3
26.	“Yoshlar uchun huquqiy marafon” o'tkazish.	oktabr	S.Raximov, R.Raxmonov, boshqarma va uning tizimidagi bo'limlari	Huquq sinflari uchun huquqiy viktorinalar, tanlovlar o'tkazish, 7-11-sinflar o'rtasida o'tkaziladi, diplom va sovg'alar beriladi.	Yoshlarning huquqiy bilimini mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish, adolatga sodiqlik, qonuniylik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish hamda iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish.	4

27.	Yakkabog‘ tumanidagi Eski Qurg‘on, Qayrag‘och, Murodulla Xojixon, Muxammadiya, Jome‘, Mallaxon tura, Tollibuloq, Yangiobod, Imom Abu Yusuf, Eshpo‘lat hoji, Chimqo‘rg‘on, Darxon, G‘urjob, Tezob, Gumbaz, Hoji Shamsidinxon, Xuja Ilgor, Turon diniy tashkilotlarida o‘rganish o‘tkazish. Natijasi yuzasidan tegishli choralar ko‘rish.	oktabr- noyabr	T.Imomberdiyev, N.Sattarova	Mazkur diniy tashkilotlar faoliyatida oxirgi 3 yillikda o‘rganish o‘tkazilmagan.	Diniy tashkilotlar tomonidan qonun va ustav talablariga amal qilishiga olib keladi.	3
28.	“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va farovonligining huquqiy kafolati” shiori ostida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili ostidagi targ‘ibot poyezdi loyihasini tashkil etish.	noyabr	S.Raximov, R.Raxmonov, boshqarma va uning tizimidagi bo‘limlari	Mamlakatimiz yoshlari aksariyat hollarda o‘zlarining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini to‘laqonli bilmasligi holatlari uchraydi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish lozim.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazish.	4
VI. Boshqa sohalarda						
29.	“Ruhiiy salomatlik-sog‘lom ish muhiti” seminar dasturi yuzasidan	har chorakda	A.Rajabov, Tuman (shahar) adliya bo‘limlari	Har chorakda professional psixolog ishtirokida 1,5-2 soatlik interaktiv formatda nazariya va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.	Taklif etiladigan mavzularni har chorakda belgilab olib, shu mazmunda seminarlarni o‘tkazib borish.	4
30.	Boshqarma va tuman (shahar) adliya bo‘limlari hamda uning tuzilmalarining moddiy qiymatliklarini to‘liq inventarizatsiya (xatlov)dan o‘tkazish hamda ta‘mirtalablarini ta‘mirlash va yaroqsizlarini hisobdan chiqarish choralari ko‘rish.	sentabr- oktyabr	T.Tursunov	Bo‘limlarning shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida	Eskirgan yaroqsiz jihozlarni hisobdan chiqarish va ta‘mirtalablarini ta‘minlab berish orqali sharoitlarni yanada yaxshilash.	1

Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo'nalishlari va mezonlari jadvali

Yo'nalish raqami	Baholanayotgan yo'nalishnomi	Yo'nalishning baholash mezonlari**	Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar	Mezon bo'yicha maksimal bali	Yo'nalish bali
1	Adliya organlariva muassasalari faoliyatini tahlil qilish	Faoliyati baholanganligi	<i>adliya bo'limlari soni bilan baholangan adliya bo'limlari soni</i>	50	100
		Tizimli tahlil amalga oshirilganligi	<i>tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
2	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma'lumot va boshqa takliflar	Taklifning asoslanganligi	<i>loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari</i>	25	100
		Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi	<i>loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi</i>	25	
		Taklif bo'yicha asoslantirish data taklif amaliyotga kiritilgandan so'ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi	<i>loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi</i>	25	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	
3	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o'rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta'sir choralar ko'rish	O'rganish qamrovi	<i>savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo'yicha asoslar soni</i>	20	100
		Qonunbuzilishning asoslanganligi	<i>qonun buzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni</i>	20	
		Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi	<i>bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni</i>	20	
		Javobgarlik choralari qo'llanilishi	<i>javobgarlik tortilishi lozim bo'lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni</i>	20	
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	20	
4	Ko'rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi	Ko'rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi	<i>normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko'rsatkichlar bilan bajarilgan ko'rsatkichlar miqdori</i>	75	100
		Muddatga rioya qilish	<i>rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat</i>	25	

Izoh:

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar adliya boshqarmasining mavjud bino, moliyaviy mablag'lari va moddiy-tekni vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.